


## Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-aprel)

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm, fizik hajm indeksi, % da



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-aprel oyida viloyat sanoat korxonalarini tomonidan 3 502,0 mld. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020 - yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 109,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 95,6 % ni tashkil etdi.


### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida 9,3 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatida - 18,5 % ga o'sishning kuzatilishi bo'lsa, tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 15,8 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 13,2 % ga kamayishi kuzatildi.

\***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** – *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,017 % ini tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 348,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,6 % ini tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushga ega avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 42,7 %, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 27,7 %, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish 16,9 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



**Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 42,7 %.**




**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 27,7%.**



**Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish ulushi -16,9%.**




## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoati



Joriy yilning yanvar-aprel oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 123,0 mldr. so'm (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,514 %) ni tashkil etdi. Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning fizik indeksi 118,5 % ni tashkil qildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 30,4 mldr. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,869 % ni) tashkil etdi.

Mazkur tarmoqda eng yuqori ulushni suv yig'ish, qayta ishslash va taqsimlash – 61,3 %, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizasiya qilish – 38,3 % tashkil etdi.






**Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati) da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (natura shaklda)**

Sanoat mahsulotlari	2021 - yil yanvar-aprel	2020 - yil yanvar-aprel	Farqi +/-
<b>Gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln. kVts:</b>	55,2	92,0	-36,8
<b>Issiqlik energiyasi – ming Gkal:</b>	47,6	59,5	-11,9
<b>Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobilarsiz) – dona:</b>	17666,0	17561,0	105,0
<b>Maxsus yengil avtomobillar – dona:</b>	3949,0	2119,0	1830
<b>Aroq – ming litr:</b>	33,2	126,0	-92,8
<b>Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr:</b>	4,8	7,4	-2,6
<b>Tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming litr:</b>	225,0	192,0	33,0
<b>Yumshoq bug'doy va spelta uni – tonna:</b>	29585,5	32314,6	-2729,1
<b>Tozalangan o'simlik yog'i – tonna:</b>	8890,9	3726,0	5164,9
<b>Xo'jalik sovuni – tonna:</b>	1829,4	1605,5	223,9
<b>Paxta tolasi – tonna:</b>	31892,8	25042,9	6849,9
<b>Paxta chigit – tonna:</b>	61068,8	42583,2	18485,6

Sanoat mahsulotlari	2021 - yil yanvar-aprel	2020 - yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Paxtadan yigirilgan ip – tonna:	9728,0	9553,6	174,4
Tarkibida 85 % yoki undan ko‘p paxta tolasi bo‘lgan ip gazlamalar – ming kv.m:	7741,0	8807,0	-1066

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi 36,8 mln. kVts ga, issiqlik energiyasi 11,9 ming Gkal. ga, aroq 92,8 ming litrga, uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari 2,6 ming litrga, yumshoq bug‘doy va spelta uni 2 729,1 tonnaga, tarkibida 85 % yoki undan ko‘p paxta tolasi bo‘lgan ip gazlamalar 1 066,0 ming kv.m.ga kamaygan.

### Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da



2020 - yil yanvar-aprel oylarida o‘rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 5,6 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2021 - yil yanvar-aprel oylarida bu ko‘rsatkich 4,1 % ga, o‘rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 46,3 % dan 44,4 % ga kamaygan bo‘lsa, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 0,01 % dan 0,03 % ga, quyi texnologiyali ishlab chiqarishning 42,8 % dan 47,1 % ga o‘sishi kuzatildi.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 1,0 mlrd. so‘mlik (2020 - yil yanvar-aprel oylarida 0,3 mlrd. so‘m), o‘rta-yuqori

texnologiyali tarmoqda 1 555,1 mlrd. soʻmlik (1 308,5 mlrd. soʻm), oʻrta-quyi texnologiyali tarmoqda 142,5 mlrd. soʻmlik (159,7 mlrd. soʻm), quyi texnologiyali tarmoqda 1 649,3 mlrd. soʻmlik (1 209,9 mlrd. soʻm) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



### Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari


<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>2021 - yil yanvar-aprel mlrd. soʻm</b>	<b>Fizik hajm indeksi, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>3502,0</b>	<b>109,6</b>
Urganch shahri	626,7	115,5
Xiva shahri	44,1	101,4
<i>shundan tumanlar,</i>		
Bogʻot tumani	90,6	94,1
Gurlan tumani	170,0	108,1
Qoʻshkoʻpir tumani	161,8	152,5
Urganch tumani	221,4	110,5
Hazorasp tumani	128,7	119,8
Tuproqqaʼa tumani*	1538,1	106,0
Xonqa tumani	158,6	102,4
Xiva tumani	70,1	172,3
Shovot tumani	190,9	101,3
Yangiariq tumani	77,3	61,7
Yangibozor tumani	23,7	102,0

Yuqoridagi jadvalning tahlili shuni koʻrsatmoqdaki, Tuproqqaʼa tumani, Urganch shahri, Gurlan, Yangibozor, Xiva, Hazorasp va Xonqa tumanlari sanoati yuqori darajada rivojlangan hududlar hisoblanadi. Ushbu shahar va tumanlarda asosan avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish, toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyatları yuqori darajada rivojlangan.




## Xorazm viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida, 2020 - yil yanvar-aprelga nisbatan Xiva tumanida 172,3 %, Qo'shko'pir tumanida 152,5 %, Hazorasp tumanida 119,8 %, Urganch shahri 115,5 %, Urganch tumanida 110,5 %, Gurlan tumanida 108,1 %, Tuproqqa'l'a tumanida 106,0 %, Xonqa tumanida 102,4 %, Yangibozor tumanida 102,0 %, Xiva shahri 101,4 %, Shovot tumanida 101,3 % sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.



SANOAT ISHLAB CHIQARISH FIZIK HAJM INDEKSI  
2020 - YIL YANVAR-APREL OYLARIGA NISBATAN, % DA



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Tuproqqa'l'a tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 43,9 %), Urganch shahri (17,9 %), Urganch (6,3%), Shovot (5,4%), Gurlan (4,9 %) Qo'shko'pir (4,6 %), Xonqa (4,5 %) hamda Hazorasp (3,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Xiva tumani (2,0 %), Xiva shahri (1,3 %) va Yangibozor tumaniga (0,7 %) to'g'ri kelmoqda.



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish (mlrd. so'm)

**Iqtisodiy faoliyat turlari:**

**2021 - yil  
yanvar-aprel**

**2020 - yil  
yanvar-aprel**

**Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari  
bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi**

**3502,0**

**2828,5**

**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni  
ishlash**

**0,6**

**0,6**

*ulardan:*

Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa  
faoliyat

**0,6**

**0,6**

**Ishlab chiqaradigan sanoat**

**3348,0**

**2678,5**

*undan:*

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

**489,9**

**424,5**

Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab  
chiqarish

**102,3**

**71,0**

To'qimachilik mahsulotlari ishlab  
chiqarish

**971,2**

**638,1**

Kiyim ishlab chiqarish

**15,8**

**8,4**

Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab  
chiqarish

**1,9**

**1,3**

Yog'och va po'kak buyumlar, poxol va  
to'qish uchun materillallari, ishlab  
chiqarish

**8,9**

**8,6**

Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab  
chiqarish

**19,8**

**20,4**

Yozilgan materiallarni nashr qilish va  
aks ettirish

**0,5**

**0,4**


<b>Iqtisodiy faoliyat turlari:</b>	<b>2021 - yil yanvar-aprel</b>	<b>2020 - yil yanvar-aprel</b>
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,2	0,1
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	6,6	7,8
Asosiy farmasevtika	0,9	0,2
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	18,6	27,4
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	67,7	73,8
Metallurgiya sanoati	8,2	9,3
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	42,6	43,5
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,06	0,1
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	8,0	7,1
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	46,6	6,9
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	1494,0	1286,8
Mebel ishlab chiqarish	7,7	7,9
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	31,3	29,4
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	5,3	5,5
<b>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>123,0</b>	<b>129,0</b>
<b>Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>30,4</b>	<b>20,4</b>




## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subyektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida, viloyatda 1 992,8 mlrd. so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2020 - yilning yanvar- aprel oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,8 % ni tashkil etdi.

2021 - yil yanvar-aprel



2020 - yil yanvar-aprel



Oziq-ovqat mahsulotlari

Nooziq-ovqat mahsulotlari

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 494,5 mlrd. so'mni, alkogol ichimliklar 3,5 mlrd. so'mni va 1 494,8 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2020 - yilning yanvar- aprel oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 116,1 %, 59,8 % va 101,7 % ni tashkil qildi va jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 56,9 % ni (2020 - yil yanvar- aprel oylarida 67,2 %) tashkil qildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda engil sanoat mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish 119,6 mlrd. so'mni, avtomobil ishlab chiqarish 1 207,2 mlrd. so'mni tashkil qilgan va 168,0 mlrd. so'mlik boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



**Xorazm viloyati bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2021 – yilning yanvar-aprel oylarida)**

<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Mlrd. so'm</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>2020 - yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1992,8</b>	<b>100,0</b>	<b>104,8</b>
Urganch shahri	302,8	15,2	151,1
Xiva shahri	37,1	1,9	114,2
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog'ot tumani	38,6	2,0	97,6
Gurlan tumani	43,6	2,2	96,9
Qo'shko'pir tumani	26,7	1,3	108,8
Urganch tumani	68,6	3,4	96,5
Hazorasp tumani	26,3	1,3	92,2
Tuproqqa'l'a tumani	1238,9	62,2	99,9
Xonqa tumani	96,2	4,8	92,5
Xiva tumani	23,6	1,2	93,9
Shovot tumani	37,8	1,9	91,9
Yangiariq tumani	25,9	1,3	115,6
Yangibozor tumani	26,7	1,3	96,1

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to'g'ri kelib – 62,2 % ni, Urganch shahrinda 15,2 % ni, Xonqa tumanida 4,8 % ni, Urganch tumanida 3,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (104,8 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Urganch shahrinda

(151,1 %), Xiva shahrida (114,2 %), Yangiariq tumanida (115,6 %), Qo'shko'pir tumanida (108,8 %) qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2021 - yilning yanvar-aprel oylarida)**

<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Mlrd. so'm</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>2020 - yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>494,5</b>	<b>100,0</b>	<b>116,1</b>
Urganch shahri	206,6	41,8	160,4
Xiva shahri	15,8	3,2	102,9
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog'ot tumani	28,5	5,8	92,7
Gurlan tumani	29,4	5,9	96,0
Qo'shko'pir tumani	13,7	2,8	101,0
Urganch tumani	41,3	8,4	92,7
Hazorasp tumani	16,1	3,2	99,0
Tuproqqa'l'a tumani	8,1	1,6	100,9
Xonqa tumani	57,7	11,7	95,0
Xiva tumani	14,9	3,0	101,0
Shovot tumani	26,6	5,4	98,4
Yangiariq tumani	14,5	2,9	100,5
Yangibozor tumani	21,3	4,3	101,3

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Urganch shahriga to'g'ri kelib – 41,8 % , shuningdek, Xonqa tumanida 11,7 %, Urganch tumanida 8,4 %, Gurlan tumanida

5,9 % ni tashkil etdi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida (160,4 %) kuzatildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2021 - yilning yanvar-aprel oylarida)**

<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Mlrd. so'm</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>2020 - yil yanvar-aprel nisbatan, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1494,8</b>	<b>100,0</b>	<b>101,7</b>
Urganch shahri	92,7	6,2	141,0
Xiva shahri	21,3	1,4	124,3
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog'ot tumani	10,1	0,7	115,2
Gurlan tumani	14,2	0,9	98,7
Qo'shko'pir tumani	12,9	0,9	118,5
Urganch tumani	27,3	1,8	103,1
Hazorasp tumani	10,2	0,7	83,1
Tuproqqa'l'a tumani	1230,8	82,3	99,9
Xonqa tumani	38,5	2,6	89,0
Xiva tumani	8,7	0,6	84,0
Shovot tumani	11,2	0,7	79,4
Yangiariq tumani	11,4	0,8	143,0
Yangibozor tumani	5,5	0,4	80,1

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to'g'ri keldi (82,3 %), shuningdek, Urganch shahrida 6,2 % ni, Xonqa tumanida 2,6 % ni va Urganch tumanida 1,8 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (101,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkichni Urganch tumani (103,1 %), Bog'ot tumani (115,2 %), Qo'shko'pir tumani (118,5 %), Xiva shahri (124,3 %), Urganch shahri (141,0 %), Yangiariq tumani (143,0 %) tashkil qildi.



### Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (2020 - yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, % da)

Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish 2020 - yil yanvar- aprel oylariga nisbatan Urganch shahrida (151,1 %), Yangiariq tumanida (115,6 %), Xiva shahrida (114,2 %) Qo'shko'pir tumanida (108,8 %) sezilarli darajada o'sgan.

Pasayish Tuproqqa'l'a tumanida (99,9 %), Bog'ot tumanida (97,6 %), Gurlan tumanida (96,9 %), Urganch tumanida (96,5 %), Yangibozor tumanida (96,1 %), Xiva tumanida (93,9 %), Xonqa tumanida (92,5 %), Hazorasp tumanida (92,2 %), Shovot tumanida (91,9 %) kuzatildi.





**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish  
(2021 - yil yanvar- aprel oylarida, ming so‘m)**


<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>2020 - yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da</b>	<b>Iste’mol mahsulotlari</b>	<b>2020 - yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1 846,9</b>	<b>108,1</b>	<b>1 051,0</b>	<b>103,3</b>
Urganch sh.	4 318,9	114,6	2 086,9	149,9
Xiva sh.	470,8	99,9	395,7	112,5
<i>shundan tumanlar,</i>				
Bog‘ot	543,4	92,5	231,2	96,0
Gurlan	1 135,5	106,8	291,0	95,7
Qo‘siko‘pir	930,2	150,7	153,5	107,5
Urganch	1 097,7	108,4	339,9	94,7
Hazorasp	656,4	151,7	134,1	116,7
Tuproqqal'a	27 614,8	0,0	22 242,7	0,0
Xonqa	841,0	100,9	510,1	91,1
Xiva	475,2	169,5	160,1	92,4
Shovot	1 110,3	99,9	220,0	90,6
Yangiariq	659,2	60,9	221,1	114,0
Yangibozor	269,1	100,7	303,2	94,9

Yuqoridagi tahliliy jadvalga asosan, joriy yilning yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo‘yicha 1 846,9 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 108,1 % ga darajada kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020- yil yanvar-aprel oylarida Urganch shahrida 2 874,8 ming so‘mdan 4 318,9 ming so‘mga, Xiva shahrida 468,5 ming so‘mdan 470,8 ming so‘mga, Gurlan

tumanida 876,6 ming so‘mdan 1 135,5 ming so‘mga, Qo’shko’pir tumanida 509,7 ming so‘mdan 930,2 ming so‘mga, Urganch tumanida 646,4 ming so‘mdan 1 097,7 ming so‘mga, Hazorasp tumanida 387,8 ming so‘mdan 656,4 ming so‘mga, Xonqa tumanida 829,8 ming so‘mdan 841,0 ming so‘mga, Xiva tumanida 227,8 ming so‘mdan 475,2 ming so‘mga, Shovot tumanida 930,9 ming so‘mdan 1 110,3 ming so‘mga oshganligi kuzatildi. Sanoati rivojlangan Tuproqqa'l'a tumanida (27 614,8 ming so‘m), Urganch shahrida (4 318,9 ming so‘m) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (1 846,9 ming so‘m) yuqoriligi kuzatilgan.

Aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi viloyat bo‘yicha 1 051,0 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 103,3 % ga o‘sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020 - yil yanvar-aprel oylarida Urganch shahrida 1 392,0 ming so‘mdan 2021 - yil yanvar-aprel oylarida 2 086,9 ming so‘mga, Xiva shahrida 351,9 ming so‘mdan 395,7 ming so‘mga, Qo’shko’pir tumanida 142,8 ming so‘mdan 153,5 ming so‘mga, Hazorasp tumanida 114,9 ming so‘mdan 134,1 ming so‘mga, Yangiariq tumanida 193,9 ming so‘mdan 221,1 ming so‘mga o‘sgani kuzatildi.

### Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2021- yil yanvar- aprel oylarida, % da)



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Xiva tumani (100 %), Yangibozor tumani (100 %), Bog‘ot tumani (39,9 %), Yangiariq tumani (33,7 %) Urganch tumani (32,9 %), Xonqa tumani (31,2 %), Gurlan tumani (26,0 %) hissasiga to‘g’ri kelgan.

Viloyatda yanvar-aprel oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 628,7 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 18,0 % ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida Tuproqqalʼa tumani (3,2 %), Shovot tumani (17,9 %), Qoʼshkoʼpir tumani (18,5 %), Urganch shahrida (18,6 %) kichik biznes subyektlari ulushining kamligini mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




### **Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 471,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 13,5 % ni tashkil etdi.



### **Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2021- yil 1- may holatiga koʼra)**

Viloyatda 2021- yilning 1- may holatiga, 3 887 ta sanoat korxonalari faoliyat koʼrsatmoqda, shundan 800 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 20,6 %) Urganch shahriga, 457 tasi (11,8 %) Urganch tumaniga, 359 tasi (9,2%) Xiva shahriga, 342 tasi (8,8 %) Xonqa tumaniga toʻgʼri kelmoqda.



2021 - yil yanvar - aprel oylarida viloyatda 417 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi. Ulardan 82 tasi Urganch shahrida, 48 tasi Xonqa tumanida, 48 tasi Urganch tumanida, 38 tasi Xiva tumanida, 33 tasi Xiva shahrida tashkil etilgan.

